



“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

OILA, XOTIN-QIZLAR VA IJTIMOIY HAYOT

elektron ilmiy jurnal

3/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan. “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.

ISSN 9874-4126

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna (Bosh muharrir o‘rinbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimqulovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
FARFIYEV Bahromjon Atxamdjanovich – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*
ISHQUVATOV Valiql Turdiyevich – *tarix fanlari doktori, professor.*
KARAMYAN Marietta Xachaturovna – *psixologiya fanlari doktori, professor.*
MUSLIMOV Narzulla Alixanovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
NURMATOVA Mukarram Axmedovna – *falsafa fanlari doktori, professor.*
NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*
RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*
SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna – *yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).*
ATAMURATOV Rasuljon Kadirjonovich – *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).*
SODIQOVA Shohida Marhobayevna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
ZOHIDOV Azamatjon A‘zamovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
IBRAGIMOV Lutfullo Ziyodullayevich – *geografiya fanlari doktori, dotsent.*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (Главный редактор) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*
Мусурманова Айниса Мусурмановна (Заместитель главного редактора) – *доктор педагогических наук, профессор.*
Абдураманов Хамид Худайбергенович – *доктор экономических наук, профессор.*
Бегимкулов Узокбой Шоимкулович – *доктор педагогических наук, профессор.*
Фарфиев Бахромжон Аtxамджанович – *доктор социологических наук, доцент.*
Ишкuvatov Валикул Турдиевич – *доктор исторических наук, профессор.*
Карамян Мариэтта Хачатуровна – *доктор психологических наук, профессор.*
Муслимов Нарзулла Алиханович – *доктор педагогических наук, профессор.*
Нурматова Мукаррам Ахмедовна – *доктор философских наук, профессор.*
Нарматов Нуриддин Соатмурадович – *доктор юридических наук, профессор.*
Рахманкулова Нилуфар Ходжи-Акбаровна – *доктор юридических наук, доцент.*
Сайдивалиева Хуршида Ходжиакбаровна – *доктор философии юридических наук (PhD).*
Атамуратов Расулжон Кадиржонович – *доктор философии педагогических наук (PhD).*
Содикова Шохида Мархобаевна – *доктор социологических наук, профессор.*
Зохидов Азаматджон Азамович – *доктор экономических наук, профессор.*
Ибрагимов Лутфулло Зийдуллаевич – *доктор географических наук, доцент.*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna (Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*
Musurmanova Aynisa Musurmanovna (Deputy Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*
Abduramanov Khamid Khudaybergenovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*
Begimkulov Uzokhboy Shoimkhulovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*
Farfiyev Bakhromjon Atkhamdjanovich – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*
Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*
Karamyan Marietta Khachaturovna – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*
Muslimov Narzulla Alikhanovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*
Nurmatova Mukharram Akhmedovna – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*
Narmatov Nuriddin Soatmuradovich – *Doctor of Law Sciences, Professor.*
Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*
Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*
Atamuratov Rasuldjon Kadirdjonovich – *Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).*
Sodikova Shokhida Markhobayevna – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*
Zokhidov Azamatjon Azamovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*
Ibragimov Lutfullo Ziyodullayevich – *Doctor of Geographical Sciences, Assistant Professor.*

SOTSILOGIYA

Xomitov K.Z. Qishloq ayollarini ish bilan ta'minlashning samarali tashkiliy mexanizmlari ta'sirini aniq sotsiologik baholash.....	4
--	---

JAMIYAT VA OILA

Ramatov J.S. O'zbekiston yoshlari – kelajagimiz poydevori	15
Yulchiyeva D.X. O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda amalga oshiralayotgan islohotlarning muhim ahamiyati	22
Акбаров А.А. Толерантность – это свобода в многообразии.....	31
Bo'riyeva M. Oila instituti mustahkamligiga turmush o'rtoq intellekt darajasining ta'siri.....	37
Pardayev S.A., Axatova M.Sh. Shaxsda musiqa madaniyatini shakllantirishda oilaning roli.....	45

XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI VA GENDER TENGLIGI

Каримова Д.М. Гендерное равенство: почему этот вопрос становится актуальным в Узбекистане	52
--	----

PEDAGOGIKA

Mavlonov B.B. O'smir yoshdagi bolalarning fazilatlarini rivojlantirishda atrof-muhit va pedagogik guruh faoliyatining ta'siri.....	61
---	----

IQTISODIYOT

Shayusupova N.T., Amirdjanova S.S. Relationship between employment and economic growth in Uzbekistan	75
Adilova Z.D., Umirova D.S. Modern factors in the development of regional tourism.....	89
Meliboyev A.R., Masharipov F.O'. Mehnat bozori ehtiyojlari asosida yoshlarni zamonaviy va sifatli kasb-hunarga o'qitish	98

Meliboyev Aziz Rozaqovich,

*Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
Mehnat bozori tahlili va amaliyotini tashkil etish
boshqarmasi boshlig'i*

Masharipov Farrux O'tkirovich,

*Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
Ish beruvchilar bilan hamkorlik va amaliyotni tashkil etish
bo'limi boshlig'i*

MEHNAT BOZORI EHTIYOJLARI ASOSIDA YOSHLARNI ZAMONAVIY VA SIFATLI KASB-HUNARGA O'QITISH

Аннотация. *Мақоллада жамиятимизнинг hozirgi rivojlanish bosqichida professional ta'lim tizimida yoshlarni mehnat bozori ehtiyojlari asosida zamonaviy va sifatli kasbga o'qitish tizimini Yevropa standartlari asosida joriy etilishining mohiyati yoritib berilgan. Tahlillar asosida mehnat bozorida yoshlarning kasb-hunar egallash va shu orqali ish bilan bandlik masalalaridagi muammolar aniqlangan. Shuningdek, professional ta'lim muassasalari mehnat bozorida yoshlarni davlat va xususiy sektordagi ish beruvchilarning ehtiyojlari asosida zamonaviy kasblarga sifatli tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Аннотация. *В статье раскрывается сущность внедрения системы современной и качественной профессиональной подготовки молодежи с учетом потребностей рынка труда в системе профессионального образования на современном этапе развития нашего общества на основе европейских стандартов. На основе анализов выявлены проблемы в трудоустройстве молодежи на рынке труда. Также разработаны научно-практические рекомендации по повышению качества подготовки молодежи на рынке труда профессиональных образовательных учреждений современным профессиям исходя из потребностей работодателей в государственном и частном секторах.*

Annotation. *The article describes the essence of the introduction of a system of modern and high-quality vocational training of young people based on the needs of the labor market in the professional education system at the current stage of development of our society based on European standards. On the basis of the analysis, the problems in the employment of young people in the labor market have been identified. Also, scientific and practical recommendations have been developed to improve the quality training of young people in the labor market of professional educational institutions for modern professions based on the needs of employers in the public and private sectors.*

Tayanch soʻzlar: *mehnat bozori, mehnat resurslari, kasb-hunarga oʻqitish, professional taʼlim, ish beruvchilar, xususiy sektor, mehnat migratsiyasi, ishchi kuchi, tashqi va ichki mehnat bozori, tadbirkorlik koʻnikmalari, kasbiy malaka tizimi.*

Ключевые слова: *рынок труда, трудовые ресурсы, профессиональная подготовка, профессиональное образование, работодатели, частный сектор, трудовая миграция, рабочая сила, внешний и внутренний рынок труда, предпринимательские способности, система профессиональных квалификаций.*

Keywords: *labor market, labor resources, vocational education, vocational training, employers, private sector, labor migration, labor force, external and internal labor market, entrepreneurial ability, professional qualification system.*

Kirish. Har qanday jamiyat boyligining manbayi, insoniyat tomonidan moddiy va maʼnaviy boylik yaratishning asosiy omili mehnatdir. Jamiyatning ijtimoiy shakli qanday boʻlishidan qatʼi nazar, mehnat moddiy va nomoddiy neʼmatlar ishlab chiqarishda zarur faoliyat boʻlib qoladi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev taʼkidlaganidek, iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy oʻzgarishlarning samarasi, birinchi navbatda, aholining moddiy ahvoli va farovonligiga, uning hayot darajasi hamda sifatiga qay darajada taʼsir koʻrsatayotgani bilan oʻlchanadi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasida taʼkidlaganidek, odamlarimizni kasb-hunarli qilish, ularning biznesiga keng yoʻl ochish, haqiqiy mulkdor boʻlib, daromad topishi uchun zarur sharoitlarni yaratish davlatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Inson, uning har tomonlama uygʻun kamol topishi hamda farovonligi, shaxs manfaatlarini roʻyobga chiqarishning sharoitlarini va taʼsirchan mexanizmlarini yaratish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlari asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish Oʻzbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olim Q.Abdurahmonovning fikricha, mamlakat iqtisodiyoti darajasini oshirishga intilish bo‘lsa, inson resurslarining sifati muttasil oshirib borilishi kerak. Bu esa, avvalo, ish beruvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta’lim standartlarini, shuningdek, bo‘lajak mutaxassislarining malakasiga talablarni tayyorlashni shakllantirish va takomillashtirish imkonini yaratadi

Asosiy qism. Bugungi kunda ishlab chiqarish texnologiyalaridagi, ijtimoiy va iqtisodiy tuzilmalardagi o‘zgarishlar dinamikasi inson avlodlari almashinuvi dinamikasidan sezilarli darajada ilgari ketib boshladi.

Bu shuni anglatadiki, aksariyat aholi mehnat hayoti mobaynida bir necha marta faoliyatning yangi turlarini o‘zlashtirishiga, o‘z malakasini doimiy ravishda oshirishiga to‘g‘ri keladi. Aynan shuning uchun axborot jamiyatini ko‘pincha “uzluksiz o‘rgatuvchi jamiyat” deb atashadi. Uzluksiz ta’lim shu tariqa har bir inson turmushining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Jamiyat axborotlashuvining ta’lim tizimiga ta’siri ana shundan iborat. Jamiyatning axborotlashuvi umumiy va professional ta’limga nisbatan sifat jihatdan yangi talablarni qo‘yadi. Buning natijasi faoliyatning yangi turlarini va ularga mos keluvchi yangi bilimlar, mahorat, malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, kengaytirish hamda takomillashtirish qobiliyatlarining rivojlanishida namoyon bo‘lishi kerak.

Bugungi kunda professional ta’lim muassasalari oldida turgan asosiy vazifalardan biri mustaqil qaror qabul qilishga qodir bo‘lgan, doimiy ravishda o‘zgarib turuvchi sharoitda aniq, samarali va oqilona harakat qila oladigan kadrlarni tayyorlashga yo‘naltirishdan iborat.

Bu mutaxassislarni tayyorlashning sifatini ta’minlashdagi jiddiy o‘zgarishlarni talab qiladi, bu professional ta’lim tizimida malakali kadrlar tayyorlashning sifatini oshirish jarayonining yo‘nalishini belgilab beradi.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olim Q.Abdurahmonovning (2019) fikricha, mamlakat iqtisodiyoti darajasini oshirishga intilish bo‘lsa, inson resurslarining sifati muttasil oshirib borilishi kerak. Bu esa, avvalo, ish beruvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta’lim standartlarini, shuningdek, bo‘lajak mutaxassislarning malakasiga talablarni tayyorlashni shakllantirish va takomillashtirish imkonini yaratadi.

Shuningdek, G.Qalandarovanning (2020) ta’kidlashicha, mehnat bozorining infratuzilmasi ish bilan bandlikka ko‘maklashuvchi, aholini kasbga yo‘naltiruvchi, kasbiy tayyorgarlik va xodimlarni qayta tayyorlash institutlari (davlat va boshqaruv organlari, birjalar, jamg‘armalar, kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish markazlari) va hokazolardan iboratdir.

M.Xolmuhammedov (2022): Xalqaro mehnat bozoridagi talab va taklifning o‘zgarishi, globallashtirish va integratsion jarayon tezlashishi, raqamlashtirish, sanoatdagi texnologik inqiloblar inobatga olinsa, shunga mos ravishda zamon talablariga javob bera oladigan ko‘nikma va malakaga ega, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash masalasining dolzarbligi yanada oshadi.

Tadqiqot ishini amalga oshirishda mehnat bozorida ehtiyojlaridan kelib chiqib, yoshlarni zamonaviy va sifatli kasb-hunarga o'qitish tizimi bilan o'zaro aloqalari tahlil etilgan. Mehnat bozorida ish beruvchilarning talab va ehtiyojlari asosida iqtisodiy aloqalarni takomillashtirish yo'nalishlari solishtirma hamda statistik tahlillar asosida davlat va xususiy sektorda ish beruvchilarning ishchi kuchiga qo'yiladigan talablari tahlil etilgan.

Kasb-hunarga o'qitishni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mehnat bozorida ehtiyoj bo'lgan va yangi istiqbolli kasblar bo'yicha zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan malakali kadrlarni kasb-hunarga o'qitish jarayonini yangi bosqichga ko'tarish hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayonlarini tashkil qilish maqsadida mamlakatimizda keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida umumta'lim maktablari kasb o'rganish istagidagi bitiruvchilarining davlat tomonidan kamida bir kasbni egallashiga ko'maklashuvchi tizimni joriy etish vazifasi belgilangan. Ana shu topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida ko'rilayotgan chora-tadbirlar o'quvchilarning muayyan kasb o'rganib, maxsus malakaga ega, raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Zero, iqtisodiyot barqarorligi, barcha sohalarda rivojlangan davlatlar bilan bellasha olish ham mehnat bozoridagi kadrlarning salohiyatiga bog'liq.

Respublika bo'yicha 2021–2022-o'quv yilida jami umumiy o'rta ta'lim maktablarini **385 839 nafar** o'quvchilar tugatgan bo'lib, shundan **168 949 nafar** o'quvchilar mehnat bozoriga kasbsiz kirib kelayotganlarni tashkil etadi.

Maktab bitiruvchilarining 50 foizi mehnat bozoriga kasbsiz kirib kelishi, Respublikadagi mavjud 704 ta professional ta'lim muassasalari 330 ta kasb-hunar maktabi, 166 ta kollej, 208 ta texnikumlardan hozirgi zamon talablariga javob beradigan hamda ichki va tashqi mehnat bozoriga malakali o'rta bo'g'in kadrlarni tayyorlaydigan tizim yaratishni va ulardan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, o'tgan qisqa vaqt mobaynida 2020–2022- yillar davomida respublikadagi professional ta'lim muassasalariga jami **565 ming nafardan** ortiq o'quvchi yoshlar hamda kasb-hunar egallash istagida bo'lgan katta yoshdagi fuqarolar o'qishga qabul qilindi.

Maktab bitiruvchilarining 50 foizi mehnat bozoriga kasbsiz kirib kelishi, Respublikadagi mavjud 704 ta professional ta'lim muassasalari 330 ta kasb-hunar maktabi, 166 ta kollej, 208 ta texnikumlardan hozirgi zamon talablariga javob beradigan hamda ichki va tashqi mehnat bozoriga malakali o'rta bo'g'in kadrlarni tayyorlaydigan tizim yaratishni va ulardan samarali foydalanishni taqozo etadi

1-jadval

**Professional ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilingan
o'quvchilar soni to'g'risidagi ma'lumot**

T/r	Ta'lim muassasa	2020/2021 o'quv yili (o'quvchilar soni)	2021/2022 o'quv yili (o'quvchilar soni)	2022/2023 o'quv yili (o'quvchilar soni)
1.	Kasb-hunar maktabi	79 217	92 634	99 040
2.	Kollej	54 270	46 869	42 369
3.	Texnikum	47 078	52 992	50 731

Bugungi kunda respublikadagi **704 ta** professional ta'lim muassasalarida jami **417 542 nafar** o'quvchiga **27 124 nafar** pedagog kadr tomonidan kasb sirlari o'rgatilmoqda.

Shuning bilan birgalikda, 2020–2022-yillar davomida professional ta'lim muassasalarini jami **143 205 nafar** o'quvchi-yoshlar tamomlab, iqtisodiyot tarmoqlarining turli sohalarida mehnat faoliyati bilan shug'ullanib kelmoqda.

Ma'lumki, bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan asrimizda yoshlarning har tomonlama puxta bilim egallashi, zamonaviy kasb-hunar sirlarini chuqur o'rganishi dolzarb ahamiyatga ega. Bu esa iqtisodiyot tarmoqlariga malakali kadrlar yetishtirib beruvchi muassasalar oldiga ham muhim vazifalarni qo'yadi. Zamonaviy kasb-hunarga ega yoshlar mamlakat iqtisodiyotining muhim tayanchi hisoblanadi. Zero, ichki va tashqi mehnat bozoriga munosib kasb egalarini tayyorlash ham bugun ustuvor masala sanaladi.

Shuningdek, tashqi mehnat migratsiyasiga chiqib ketayotgan fuqarolarimiz va yoshlarni xorijiy ish beruvchilarning malaka talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash maqsadida professional ta'lim muassasalari, "Ishga marhamat" monomarkazlari hamda kasb-hunarga o'qitish markazlari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarida kasb-hunarga va xorijiy tillarga o'qitish yo'lga qo'yilgan.

Bundan tashqari, mehnat bozori konyunkturasi tahlil qilindi mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha 124 000 nafardan ortiq ishchi kasb egalariga bo'lgan joriy va yaqin istiqboldagi ehtiyoj belgilab olindi.

Kasb-hunarga o'qitiladigan kontingent sifatida 1 558,3 000 nafar ishga joylashtirishga muhtoj aholi hamda 563 000 nafar mehnat bozoriga ilk marta kirib keluvchilar belgilab olindi.

**Bugungi kunda
respublikadagi
704 ta
professional ta'lim
muassasalarida
jami 417 542 nafar
o'quvchiga
27 124 nafar
pedagog kadr
tomonidan
kasb sirlari
o'rgatilmoqda**

“Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan ishsiz shaxslar hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitishda ustuvorlik belgilandi.

2-jadval

Kasb-hunarga o‘qitilgan ishsiz fuqarolar va yoshlar to‘g‘risidagi ma‘lumot

T/r	Toifalar	2021-yilda (ming)	2022-yilda (ming)
1.	Ishsiz fuqarolar	115,4	132,4
2.	Yoshlar	62,8	66,8

Bugun yoshlarni ish bilan ta‘minlash, biror faoliyat turiga jalb etishning eng samarali yo‘li ularni kasb-hunarga o‘qitish ekani mamlakatimiz tajribasida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. O‘tgan qisqa vaqt ichida yoshlar, ayniqsa, ishsiz aholi qatlamini bu tizimga jalb qilish, kelgusida oliy ta‘limni davom ettirishidan qat‘i nazar, ularga hayotida asqotadigan biror hunarni o‘rgatish, egallagan kasbi bo‘yicha bo‘sh ish o‘rinlari yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Professional ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, professional ta‘lim tizimini tubdan qayta ko‘rish, xalqaro standartlar darajasiga mos mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda.

Avvalo, davlatimiz rahbarining mazkur murojaatnomasida 2023-yilning yurtimizda **“Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili”** deb nomlanishi professional ta‘lim tizimiga ham bir qator ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

Professional ta‘lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlash tizimini yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida:

2023-yilda har bir hududda kamida **1 tadan namunaviy texnikum** tashkil etib, ularda **Yevropa kasbiy ta‘lim sifatini ta‘minlash standartlarini** joriy etish hamda bu orqali Yevropa kasbiy ta‘lim va kasbga o‘qitish sifatini ta‘minlash (EQAVET) tizimi asosida professional ta‘lim sifatini ta‘minlashning mezonlarini ishlab chiqish;

EQAVET tizimi bu: Yevropa mamlakatlari professional ta‘limida sifatni ta‘minlashning namunali (etalon) yagona tizimini yaratish

Professional ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, professional ta‘lim tizimini tubdan qayta ko‘rish, xalqaro standartlar darajasiga mos mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda

EQAVET tarmog‘i Yevropa ittifoqi davlatlari (27 ta), YIga a‘zolikka nomzod davlatlar (Turkiya, Albaniya, Serbiya, Shimoliy Makedoniya, Chernogoriya)da to‘liq joriy etilgan. Shveysariya, Norvegiya, Islandiya mamlakatlari professional ta‘lim sifatini ta‘minlashda ushbu tizim indikatorlariga asoslanadi. Bundan tashqari, EQAVET tizimi asosida Belarus, Armeniya, Rossiya kabi MDH davlatlarida ham sifatni ta‘minlashda ushbu amaliyot joriy etilgan

maqsadida 2009-yilda Professional ta‘lim va kasbga o‘qitishda Yevropa sifat kafolati tizimi (*EQAVET – European Quality Assurance in Vocational Education and Training*) yo‘lga qo‘yilgan.

EQAVET tarmog‘i Yevropa ittifoqi davlatlari (27 ta), YIga a‘zolikka nomzod davlatlar (*Turkiya, Albaniya, Serbiya, Shimoliy Makedoniya, Chernogoriya*)da to‘liq joriy etilgan. Shveysariya, Norvegiya, Islandiya mamlakatlari professional ta‘lim sifatini ta‘minlashda ushbu tizim indikatorlariga asoslanadi. Bundan tashqari, EQAVET tizimi asosida Belarus, Armeniya, Rossiya kabi MDH davlatlarida ham sifatni ta‘minlashda ushbu amaliyot joriy etilgan.

EQAVET tarmog‘i tomonidan tashkil etilgan tizim orqali bugungi kunda Yevropa davlatlarida professional ta‘lim va kasbga o‘qitish sifatini ta‘minlashning yagona tizimini joriy etish orqali ta‘lim olayotganlar o‘quvchilar va bitiruvchilar mobilligini ta‘minlash, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali sifatli kadrlar tayyorlashga erishiladi.

Shu bilan birga, EQAVET tarmog‘i tomonidan tashkil etilgan tizim orqali **Yevropa malaka ramkasi** (*EQF – European Qualifications Framework*)ning amaliyotga samarali joriy etilishi va ishlashini ta‘minlaydi.

EQAVET talablari asosida professional ta‘lim tizimining sifatni ta‘minlash islohotlarini amalga oshirish zarurati:

Professional ta‘lim tizimida sifatni ta‘minlashning aniq belgilangan indikatorlari mavjud emasligi sababli ta‘lim jarayonini tashkil etish, pedagoglar ta‘minoti, ish beruvchilar bilan hamkorlik va o‘quvchilar malakasini baholash bilan bog‘liq jarayonlarning **xalqaro standartlarga qay darajada mosligini aniqlash** imkoniyati mavjud emas.

Shu bilan birgalikda, professional ta‘lim tizimining amaldagi holati bo‘yicha aniq tahlillarga asoslangan ma‘lumotlarning mavjud emasligi mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha strategik tizimli islohotlarni amalga oshirish hamda qarorlar qabul qilish jarayonida muammolar yuzaga kelmoqda.

O‘zbekistonda EQAVET sifatni ta‘minlash tizimini joriy etish bosqichlari:

1. Hukumat darajasida professional ta‘limda sifatni ta‘minlashni **muvofiqlashtiruvchi kengashni** tashkil etish:

Kengash tarkibida Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Bandlik va mehnat munosabatlari

vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Savdo-sanoat palatasi va boshqa sohaga mas'ul bo'lgan vazirliklar hamda idoralar kiritiladi.

2. EQAVET tavsiyalariga muvofiq professional ta'lim tizimida sifatni ta'minlash bo'yicha milliy indikatorlar, baholash mezonlari, ko'rsatkichlari va tartibi ishlab chiqiladi hamda tasdiqlanadi.

3. Professional ta'lim tizimi sifatini ta'minlash ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va ta'lim muassasalarini baholashdan o'tkaziladi.

Shuningdek, kasbga o'qitish tizimida natijaga erishish uchun har bir davlatda professional ta'lim tizimining sifatini ta'minlashga alohida idora mas'ul etib belgilanadi. Mas'ul bo'lgan idoralar tomonidan mamlakatdagi mavjud professional ta'lim muassasalarida EQAVET indikatorlari asosida doimiy ravishda baholash amalga oshiriladi.

– 2023–2024-o'quv yilida professional ta'lim muassasalarida grant o'rinlar sonini 100 000 dan 130 000 taga oshirish va 200 000 nafar yoshlarni kasb-hunar bilan qamrab olish;

– namunaviy professional ta'lim muassasalarida boshqaruv tizimini tashkil qilish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, mehnatga haq to'lash va faoliyatini moliyalashtirishning alohida tartibini joriy etish;

– namunaviy professional ta'lim muassasalarida o'qishni to'liq bepul qilish hamda kelgusi 5 yilda barcha professional ta'lim muassasalarida ushbu tizimni yo'lga qo'yishni ko'zda tutish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida:

– o'rta bo'g'in kadrlarga bo'lgan **ehtiyojni aniqlashning yangi mexanizmlarini** belgilash;

– Yevropa mamlakatlarining ilg'or tajribasi asosida pedagog kadrlarini **qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish** tizimini joriy etishni ko'zda tutadi. Shu bilan birga, Professional ta'lim tizimining **moddiy-texnik bazasini rivojlantirish** dasturi ishlab chiqiladi.

Professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarni tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitishning yangi metodikalarini xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda joriy etish hamda mazkur yo'nalishdagi o'qituvchilarni yangi metodikalar bo'yicha o'qitish yo'lga qo'yiladi.

Maktab o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlarini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish va kasb-hunar maktablariga o'quvchilar qamrovini oshirish maqsadida chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Professional ta'lim tizimini 2023–2030-yillarda

2023–2024-o'quv yilida professional ta'lim muassasalarida grant o'rinlar sonini 100 000 dan 130 000 taga oshirish va 200 000 nafar yoshlarni kasb-hunar bilan qamrab olish

rivojlantirish **strategiyasini** ishlab chiqish bo'yicha asosiy ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mehnat bozori ehtiyojlari asosida yoshlarni zamonaviy va sifatli kasb-hunarga o'qitish tizimini takomillashtirish yoshlarning munosib kasb, munosib turmush tarzi, munosib mehnat, farovon hayot va munosib daromad ishlash uchun shart-sharoit yaratish hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Mehnat bozorining rivojlanishi tendensiyalarini inobatga olgan holda, aholining keng qatlamlarini talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish va malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish hamda mehnat resurslari balansini shakllantirish tartibini takomillashtirish, ayniqsa, mehnat bozoriga ilk bor kirib kelayotgan yoshlar bandligini ta'minlash hamda tadbirkorlikka jalb etish bo'yicha quyidagilar tavsiya etiladi:

Mehnat bozorining aniq talabidan kelib chiqib, kasb-hunarga o'qitish davlat buyurtmasini hududiy investitsiya dasturlari asosida yaratilayotgan ish o'rinlarini inobatga olgan holda shakllantirish

- mehnat bozorining aniq talabidan kelib chiqib, kasb-hunarga o'qitish davlat buyurtmasini hududiy investitsiya dasturlari asosida yaratilayotgan ish o'rinlarini inobatga olgan holda shakllantirish;
- kasb o'rganish istagidagi bitiruvchilarini nechta kasbni davlat tomonidan egallashi mumkinligiga aniqlik kiritish hamda umumta'lim maktablarining bitiruvchi sinflari o'quvchilarini kasb-hunarga o'qitishni tashkil etish bo'yicha aniq mexanizmlarni belgilash;
- mehnat bozorida talab va taklifni muvofiqlashtirish uchun bugun va istiqbolda qanday mutaxassislarni qancha miqdorda tayyorlash kerakligini, zamonaviy korxonalarda mehnat faoliyati olib borish layoqatiga ega bo'lish uchun ular qanday kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerakligini aniqlash mexanizmlarini ishlab chiqish;
- mehnat bozorida 2030-yilgacha mavjud yangi paydo bo'ladigan kasblar ro'yxatini shakllantirish;
- mutaxassis kadrlarga bo'lgan aniq prognozlarni ishlab chiqish;
- Respublikamizning har bir tuman (shahar)larida ish beruvchilarning o'rta bo'g'in ishchi kadrlarga bo'lgan mehnat bozoridagi joriy hamda (yaqin, o'rta va uzoq) istiqboldagi talabini tizimli o'rganib borish;

- ta'lim muassasalarida fan-texnika taraqqiyoti ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi va diversifikatsiyalashuvi sharoitida murakkab zamonaviy vazifalarni yuqori kasbiy darajada hal qila oladigan mutaxassislar tayyorlash;
- mintaqada ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojni kasb-malaka jihatdan prognozlash tizimini yaratish;
- ta'lim sifati nazorat tizimini yaratish, u mintaqa mehnat bozori ehtiyojlariga qarab ta'lim tizimini "tashkil qilishi" lozim;
- aholi bandligiga ko'maklashish dasturlarining yetarli darajada moliyalashtirilishini ta'minlash;
- mintaqa ma'lumotlar bazasida mavjud bo'sh ishchi o'rinlari to'g'risida ishsizlarni va mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlarni maksimal darajada xabardor qilish maqsadida bandlik markazlari bilan ish beruvchilarning doimiy aloqasini ta'minlash;
- davlatning faol bandlik siyosati orqali xususiy sektorda tashkil etilayotgan ish o'rinlariga yoshlarni ishga qabul qilgan tadbirkorlarga imtiyozlar berish;
- mehnat bozorida vositachilik qilayotgan bandlik markazlariga xalqaro standartlar asosida yangi mexanizmlarni joriy etish va rivojlantirish;
- Yevropa davlatlari, AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada va Isroil davlatlari bilan uyushgan migratsiyani rivojlantirish maqsadida mazkur rivojlangan davlatlarning ish beruvchilari o'rtasida O'zbekistonning mehnat migratsiyasi tizimi qulayligini targ'ib qilish.
- yoshlar bandligi samaradorligini oshirish uchun iqtisodiy rag'batlardan, jumladan, yoshlarni ishga joylashtirish va qabul qilish, ularni kasbga o'qitish, malakasini oshirish hamda qayta tayyorlash bo'yicha xizmatlarini taqdim qilishdan korxonalarining manfaatdorligini oshiradigan soliq imtiyozlaridan ham foydalanish, yoshlarni ishga qabul qilish uchun qo'shimcha kvotalar ajratish lozim.

Mintaqa ma'lumotlar bazasida mavjud bo'sh ishchi o'rinlari to'g'risida ishsizlarni va mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlarni maksimal darajada xabardor qilish maqsadida bandlik markazlari bilan ish beruvchilarning doimiy aloqasini ta'minlash

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Мирзиёев Ш. “Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси”. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021.*
2. *Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига Мурожаатномаси. – Тошкент 2022 йил, 20 декабрь.*
3. *Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 20 октябрдаги “Аҳоли бандлиги тўғрисида”ги ЎРҚ-642-сон Қонуни.*
4. *Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрдаги “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637-сон Қонуни.*
5. *Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 28 октябрдаги “Меҳнат кодексини тасдиқлаш тўғрисида”ги ЎРҚ-798-сон Қонуни.*
6. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони.*
7. *Абдурахмонова Г. Меҳнат иқтисодиёти. // Ўқув қўлланма. – Тошкент: Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2020.*

“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬИ И ЖЕНЩИН»
“FAMILY AND WOMEN” RESEARCH INSTITUTE

**OILA, XOTIN-QIZLAR VA
IJTIMOIY HAYOT**
СЕМЬЯ, ЖЕНЩИНЫ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЖИЗНЬ
FAMILY, WOMEN AND SOCIAL LIFE

elektron ilmiy jurnal
электронный научный журнал
electronic scientific journal

3/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan. “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации» № 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года. Журнал “Семья, женщины и общественная жизнь” считается продолжение журнала “Социальное управление”.

Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных, фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021. The journal «Family, women and social life» is a continuation of the journal «Social management».

This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions of makhalla, family and gender equality.

MUASSIS:

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,
Jo‘rayeva M., Razzakova N.,
Sobirova E., Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizayner: **Yakubov O.**

Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.

Jurnalga kiritilgan maqola materialari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 21.08.2022.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 11,6.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.

“SANBOOK EXCLUSIVE PRINT” XK bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Yangıhayot tumani, 5-qurılısh hududi, 9-uy.